



ISSUE 4

AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

April 2025



**International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
April 2025**

Tashkent 2025

**IMKONIYATI CHEKLANGAN VA NOGIRONLIGI BO'LGAN
BOLALARGA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINI
TASHKIL QILISH**

Xasanov Akramjon Abdujalilovich
NamDPI Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti

Abdujalilov Bobir Akramjon o‘g‘li
*Namangan viloyati boshqarmasi tasarufidagi aloxida
ta ’lim extiyoylari bolalar uchun ixtisoslashtirilgan
49-sonli maktab internati tarbiyachisi*

[e-mail: asilbekmakhmudjonov19981126@gmail.com](mailto:asilbekmakhmudjonov19981126@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagи imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan bolalarga jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilish, shuningdek, ularga mashqlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish, ularni iqtidoriga ko‘ra sport turlariga yo‘naltirish haqida mulohaza qilinadi.

Kalit so‘zlar: nogironligi bo‘lgan bolalar, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, sport, jismoniy mashqlar, adaptiv sport, usullar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации физического воспитания и спортивных занятий для детей с ограниченными возможностями и инвалидностью в нашей стране. Также обсуждаются создание необходимых условий для выполнения физических упражнений и направление детей в различные виды спорта в соответствии с их способностями и талантами.

Ключевые слова: дети с инвалидностью, занятия по физическому воспитанию, спорт, физические упражнения, адаптивный спорт, методы.

Abstract: This article discusses the organization of physical education and sports activities for children with disabilities and special needs in our country. It also addresses the creation of appropriate conditions for performing exercises and guiding these children towards various sports based on their abilities and talents.

Keywords: children with disabilities, physical education activities, sports, physical exercises, adaptive sports, methods.

Dolzarblik. Jamiyatda va butun yer yuzida imkoniyati cheklangan va nogironligi bor jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar mavjud. Ular oddiy bolalalr kabi, jismoniy tarbiya sport bian muntazam ravishda shug‘ullanishlari kerak albatta. Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar orasida kuchli zakovat egalari, ma’naviy boy, ilmiy salohiyatini oshirishga, hayotda o‘z o‘rnini topishga harakat qilayotgan ko‘plab yoshlar topiladi. Qo‘l-oyoqsiz, ko‘zi yoki organizmining qaysidir a’zosi ishlamasada, ma’lum sport turi bo‘yicha shug‘ullanib mamlakatimiz bayrog‘ini yuksaklarga kutarilishiga o‘z hissalarini qo‘shishmoqda [2].

Tadqiqotning maqsadi. Yurtimizda jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarga sport bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash va davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son va 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son farmonlariga muvofiq jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarga sport bilan shug‘ullanish uchun shart-sharoitlarni kengaytirish hamda ular o‘rtasida sport bilan shug‘ullanuvchilar qamrovini yanada oshirish, barcha turdag‘i sport ta’lim muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun sport bo‘limlarini bosqichma-bosqich tashkil etish hamda iqtidorga ega bo‘lgan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni tanlab olish, ularni sport turlariga yo‘naltirish, tayyorlash hamda oliv sport mahoratiga erishishini ta’minlovchi uzlusiz yagona kompleks tizimni joriy etish, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida maxsus ta’lim muassasalarida hamda mahallalarda sport musobaqalarini muntazam ravishda o‘tkazish, barcha turdag‘i sport ta’lim muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning sport bilan shug‘ullanishlari uchun zamonaviy moddiy-texnik bazani shakllantirishga e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonining 4.4-bandida “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” bo‘yicha aholining ijtimoiy nochor qatlamlari sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi belgilab berilgan. Ushbu Farmonda jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning oliv o‘quv yurtlarida ta’lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash kabi muhim vazifalar ko‘zda tutgan [4,5,6].

Tadqiqotning usullari va tashkil etilishi. Imkoniyati cheklangan bolalar jismoniy tarbiya va sport bilan mutaxassis yordamida tizimli shug‘ullanishlari ularning to‘g‘ri rivojlanishiga katta yordam beradi. Bu borada mutaxassislardan malakali bilim, yuqori iqtidor hamda individual yondashuv talab qiladi, shundagina kerakli maqsadga erishiladi albatta.

Adaptiv jismoniy tarbiya - o‘zining oldiga bosh maqsad qilib jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni nafaqat jismoniy mashg‘ulotlar va fizioterapetiv usullar yordamida davolashni olib borish, balki ularning ijtimoiylashuvi hisoblangan ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Adaptiv jismoniy tarbiyaning maqsadi funktsional imkoniyati cheklangan insonlarni jismoniy va ijtimoiy sharoitga moslashishga o‘rgatishdan iborat.

Adaptiv jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari quydagilardan iborat:

1. ruxiy rivojlantirish, atrof muxitni to‘g‘ri qabul qila bilish;
2. organizmni funktsional xolatini oshirish;
3. kasallikni, uning asoratini maxsus usullari yordamida bartaraf etish;
4. ijobiy ruxni tiklab, salbiy ruxni yo‘qotish;
5. organizmning tayanch funksiyalarini rivojlantirish (chiniqtirish);
6. organizmning faol funktsional holatini saqlash, psixologik va jismoniy qiyinchiliklarini engish borasida muxim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni oshirib borish;
7. barkamol jismoniy rivojlanish:

Tadqiqot natijalari va ularni muhokamasi. Adaptiv jismoniy tarbiyada xuddi jismoniy tarbiya va sportdagi kabi vositalardan foydalilanadi: jismoniy mashqlar, harakatli va sport o‘yinlari, chiniqtirish vositalari, xoreografiya unsurlari va shunga o‘xhash vositalar. Mashqlar, tabiatni sog‘lamlashtiruvchi kuchlari, gigienik omillar vositalaridir. Nogironlarning jismoniy tarbiyasida bu tizimning barcha vositalari keng qo‘llanilishi lozim, vaxolangki ayni paytda u yoki bu nogironlar guruhi uchun korreksiyalash va kompensatsiyalash vazifalari qat’iy ravishda qayta ishlab chiqilishi va qo‘llanishi kerak. Nogironlarning jismoniy tarbiya shakllarini quyidagicha tizimlashtirish maqsadga muvofiq.

Harakat xususiyatlarining sifatlari buyicha : a) kuch-quvvat mashqlari b) tezkor mashqlar, c) tezlik-kuchlilik mashqlari, d) umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirish uchun mashqlar, e) egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mashqlar, f) muvozanatni rivojlantirish uchun mashqlar.

Harakat xususiyati faoliyati bo‘yicha : a) tsikllik xususiyatdagi jismoniy mashqlar, b) atsikllik xususiyatdagi jismoniy mashqlar, c) atsikllik va tsikllik xususidagi jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oluvchi aralash mashqlar. Turlar bo‘yicha a) gimnastika mashqlari, b) suzish, c) sport va harakatli o‘yinlar, d) turizm va sayohatlar, e) og‘ir atletika va atletik gimnastika elementlari, f) engil atletika elementlari, g) eshkakli sport elementlari, h) velosport elementlari, i) mashqlar va nogironlar aravachasida o‘yinlar va boshqalar.

Nogironlar jismoniy madaniyatining asosiy shakllari quyidagilardir :

1. Jismoniy mashqlar va mustaqil mashg‘ulotlar (ertalabki gigienik gimnastika, sayrlar, yaqin turizm, korreksion mashg‘ulotlar va boshqalar)
2. Jismoniy tarbiya va sport bilan tashkillashtirilgan guruhlar va sektsiya mashg‘ulotlari (davolash sanatoriya va rehabilitatsion markazlarda mavjud sport turlari, guruh va sektsiyalarda jamoat jismoniy tarbiya tashkilotlarida, ishlab chiqarish gimnastikasi, moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo‘lganlar, maishiy xizmatdagi shaxslar uchun DJT va korreksion mashqlar va boshqalar)
3. Nogironlar sporti (mashq, turli xil sport musobaqalarini tashkil qilish va o‘tkazish) Nogironlarning harakat faoliyatiga uy sharoitida har kuni jismoniy mashqlar

va mustaqil mashg‘ulotlar kiritilishi muhim. Kun davomida 15-30 daqiqali 3-4ta mashg‘ulot o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir dars o‘zining aniq maqsadi, vazifalari, o‘tkazilish metodlari, o‘quv dasturi, reja va moddiy texnik ta’minoti va boshqa ixtisoslik xujjatlariga ega bo‘lishi kerak. Undan tashqari, didaktik talablarga mos kelgan xolda tashkillashtirilishi, vaqtini maqsadga muvofiq taqsimlashi, eng ko‘p samara beradigan metodlarni qo‘llashi talab etiladi. Dars davomida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabati, faolligi, mustaqilligi hamda o‘zaro o‘tkaziladigan suxbatlar ham to‘g‘ri tashkillashtirilishi kerak.

Darsga qiziqishni tashkil etish usullari:

- Diqqatni jamlash uchun tanlangan mashqlar berish;
- Avval o‘tilgan mavzularni qaytarish uchun vazifa berish;
- Xotira va kuzatuvchanlikka mashqlar;
- Yangi darsga mo‘ljallangan vazifalarni o‘rganish uchun mashqlar;
- O‘tgan darsda uy vazifasini bajarish turlarini muxokama qilish (bu vazifa aynan bir muammoga tegishli bo‘lishi, har bir o‘quvchi uchun o‘ziga xos qiziqarli va bajarish imkonini bor bo‘lishi kerak).

Dars mashg‘ulotlari aniq tuzilishga ega bo‘lib, tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlardan iborat.

Tayyorgarlik qismining vazifasi - o‘quvchilarni uyushtirish, dars vazifasini tushuntirish, shug‘ullanuvchilar organizmini bo‘lajak jismoniy harakatga va mashqlarni bajarishga tayyorlashga qaratiladi. Mazmuni-saflanish elementlari, gimnastik qayta saflanishlar, qo‘llar, oyoqlar, gavda bilan qo‘srimcha harakatlar, yurish, yugurish, sakrash, umumrivojlantiruvchi mashqlar va raqs elementlari, o‘yinlar.

Asosiy qismga qo‘yiladigan talablar - darsning asosiy vazifalarini xal etish, yangi materialni o‘rganish, o‘tilgan materialni bajarishni takomillashtirish maqsadida takrorlash, o‘quvchilar harakat, ko‘nikma va malakalarini egallashlari, ularda tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilikni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Asosiy qismidagi mashqlar tayyorgarlik qismidagi mashqlarning izchil davomi bo‘lishi lozim. Umumrivojlantiruvchi mashqlar bu yerda xam o‘rtacha fiziologik samaraga erishish hamda boshka mashq turlariga tayyorlash uchun qo‘llaniladi. Buyumlar bilan bajariladigan va qad-qomatni shakllantiruvchi mashqlar darsga xususiy vazifani hal etish- bu harakat turlarini o‘rganish uchun kiritiladi. O‘quvchilarga har tomonlama ta’sir ko‘rsatish va ular tomonidan ko‘p miqdordagi harakatlarni egallashlari uchun darsning asosiy qismiga uchtadan to‘rttagacha jismoniy mashq kiritiladi. O‘quvchilardan harakatchanlikni talab qiluvchi (yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish va oshib o‘tish) o‘yinlar o‘tkaziladi.

Xulosalar. Yakunlovchi qismining asosiy vazifalari - darsning asosiy qismidagi mashg‘ulotlarda yuzaga kelgan taranglik va ko‘zg‘alishdan sekin-asta nisbatan hotirjam holatiga o‘tkazish, darsni yakunlash, yutug‘ va kamchiliklarni ko‘rsatish uyga vazifa berish, uyushgan xolda yangi faoliyatga o‘tish. Ushbu dars mashg‘ulotlari orqali

nogironligi bo‘lgan bolalarni jismoniy tarbiya, sportga, eng asosiysi hayotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib borishga muhim turtki bo‘ladi.

FOYDANALIGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslami davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5270-son farmoni 3- b.
2. M.X.Mirjamolov “Adaptiv jismoniy tarbiya va sport” O‘quv qo‘llanma Chirchiq- 2020.
3. R.S.Salamov, M.X.mirjamolov “Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning sport mashg‘ulotlariga moslashishi”. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent - 2014



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
3-son

Nashr qilingan sana: 29.03.2025.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog'iston ko'chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172